

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

---

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

Farg'ona,  
2022.

<b>T.Egamberdiyeva</b> Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	7
<b>R.Safarova, M.Abdullayev</b> Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari .....	11
<b>J.Obidov</b> Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati .....	16
<b>F.Madraximova</b> Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida .....	21
<b>X.Tojiboyeva</b> O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	26
IQTISODIYOT	
<b>M.Yuldasheva, A.Kolkanatov</b> Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing .....	29
<b>S.Ismoilova</b> Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi .....	34
FALSAFA, SIYOSAT	
<b>A.Yuldashov</b> Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'rnini .....	39
<b>D.Raxmatova</b> Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida) .....	47
TARIX	
<b>B.Matboboyev, A.Aloxunov</b> Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari .....	53
<b>S.To'raxo'jayev</b> Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan .....	58
<b>R.Ahmedov</b> Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) .....	63
<b>Sh.Jumayev</b> Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun .....	70
<b>I.Xo'jaxonov</b> Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi .....	74
<b>A.Sarsenbayev, N.Turambetov</b> Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) .....	78
<b>R.Akbarov</b> Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi .....	85
<b>R.Murodaliyev</b> So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida .....	92
<b>N.Turambetov</b> Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim .....	98
<b>X.Ergasheva</b> 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi .....	103
<b>Sh.Xonimov</b> Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri .....	109

**QATAG'ONLIK SIYOSATINING AHOLI IJTIMOY-MA'NAVIY HAYOTIGA SALBIY TA'SIRI (XX ASRNING 40-50 YILLAR MISOLIDA).**

**НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИКИ РЕПРЕССИИ НА СОЦИАЛЬНУЮ И ДУХОВНУЮ ЖИЗНЬ НАСЕЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ 40-50-Х ГГ. XX ВЕКА).**

**NEGATIVE IMPACT OF THE POLICY OF REPRESSION ON THE SOCIAL AND SPIRITUAL LIFE OF THE POPULATION (ON THE EXAMPLE OF THE 40-50S OF THE XX CENTURY).**

**Raxmatova Dilnavoz Jurakobilovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Raxmatova Dilnavoz Jurakobilovna – Qarshi davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag'on qurbonlari xotirasi” muzeyi direktori  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:**

*Ushbu maqolada XX asrning 40-50 yillarida olib borilgan qatag'onlik siyosati, uni aholi ma'naviy hayotiga ta'siri hususida so'z boradi. Jumladan, ushbu davr siyosatining aholi hayotning diniy, madaniy, kadrlar boshqaruvi, ilm-fan sohalariga yetkazgan salbiy ta'siri manbalar asosida tadqiq etildi. Undan tashqari, sho'ro hukumati tomonidan o'rnatilgan qoidalar hamda unga bo'y so'nmagani shaxslarga nisbatan qo'llanilgan jazo choralari, hamda Sobiq ittifoqning jazo mashinasiga tushib qolishidan qo'rqqan xalq bu davrda milliy qadriyatlar va o'zligidan uzoqlashganligi maqolada yoritildi. Xulosa o'rnida maqolada O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritishi o'zbek xalqiga berganilgan eng oliy ne'mat ekanligi, tarixiy haqiqat va adolatning tiklanishi, xalqning ma'naviy tafakkurini shakllanishi mamlakat taraqqiyotining kafolati ekanligi haqida so'z boradi.*

**Аннотация:**

*В данной статье рассказывается о политике репрессий, проводившейся в 40-х и 50-х годах 20 века, и ее влиянии на духовную жизнь населения. В частности, по источникам исследовано негативное влияние политики этого периода на религиозную, культурную, кадровую, научную сферы жизни населения. Кроме того, в статье освещались правила установленные Советским правительством, и меры наказания применяемые к тем, кто их не соблюдал, а также тот факт, что люди, опасавшиеся попасть в карательную машину бывшего союза, в этом периоде были отделены от своих национальных ценностей и идентичности. В заключении статьи отмечается, что независимость Узбекистана является высшим благом, дарованным узбекскому народу, восстановление исторических фактов и справедливости, формирование духовного мышления народа - залог развития страны.*

**Abstract.**

*This article describes the policy of repression, carried out in the 40s and 50s of the 20th century, and its impact on the spiritual life of the population. In particular, according to the sources, the negative impact of the policy of this period on the religious, cultural, personnel, scientific spheres of life of the population was studied. In addition, the article highlighted the rules established by the Soviet government, and the penalties applied to those who did not comply with them, as well as the fact that people who feared falling into the punitive machine of the former union were separated from their national values and identity during this period. In the conclusion of the article, it is noted that the independence of Uzbekistan is the highest blessing bestowed on the Uzbek people, the restoration of historical facts and justice, the formation of the spiritual thinking of the people is the key to the development of the country.*

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, madaniyat, urf-odatlar, qadriyat, ilm-fan, paxtachilik, qatag'on, jamiyat, millat, siyosat.

**Ключевые слова:** духовность, культура, традиции, ценность, наука, хлопководство, репрессии, общество, нация, политика.

**Key words:** spirituality, culture, traditions, value, science, cotton growing, repressions, society, nation, politics.

*“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat”.*

**Shavkat Mirziyoyev.**

**KIRISH.**

Sho'ro hokimiyatining XX asrning 40-50 yillarida olib borilgan qatag'onlik siyosati ijtimoiy hayotning asosiy bo'g'inlaridan bo'lgan xalqni diniga, insoniy ma'naviy qadriyatlariga, undan tashqari ikkinchi jahon urushida asrga tushganlarga nisbatan qo'llanildi. Xalqning milliy madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazish bilan birga, mahalliy kadrlar boshqaruvi, ilm-fan yangiliklari sohalarini ham nazoratda tutib turdi. Hukumat tomonidan o'rnatilgan qoidalarga bo'y so'naganlarni qat'iy jazo kutardi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

Tadqiqot yuzasidan T.Raximbabayeva, L.Abasova, L.I.Brejnev, S.R.Ergasheva, N.Mutalov asrlariga murojaat qilindi hamda ilmiy tahlil qilindi.

Quyida ushbu davrda aholining ma'naviy hayotini asosiy jihatlarini tashkil etadigan sohalarga kengroq to'htalamiz.

*Diniy-ma'naviy soha.* "Bizni madaniyatimiz o'z taraqqiyot yo'lida mazmunan sotsialistik, shaklan xilma-xil milliy ko'rinishda, ro'hiyati va tabiatiga ko'ra internatsional. Bu ma'naviy qadriyatlarning barcha xalqlar tomonidan yaratilgan organik qotishmasidir", -deb ta'kidlab o'tadi L.Brejnev [1;7]. Aslini olgandachi xalqlarning ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan qaralganmi? Sho'ro davrida ijtimoiy ma'naviy hayotning asosini tashkil etgan ta'lim, tarbiyada ateistik g'oya ustunlik qilib, ittifoq tarkibidagi barcha xalqlar ma'naviyatini ushbu g'oya asosida birlashtirish asosiy maqsad bo'ldi. Millat urf-odatlarini, qadriyatlarining barchasi ateistik g'oyalar soyasida hira tortib bordi. Asta sekinlik bilan ateistik dunyoqarashdagi jamiyat shakllana bordi. Zero, ma'naviy hayotning shakllanib, taraqqiy etishi, qanchalik uzoq yashashi shu jamiyat a'zolari, ularning tafakkur doirasi va mamlakat mafkurasi bilan bog'liq.

L.I.Brejnevning KPSS XXIV syezdidagi hisobot dokladida qayd etilganidek, "Insonning o'zini har tomonlama kamolotga yetkazmay turib komunizm qurishdek buyuk ishni olg'a siljitish mumkin emas. Tegishli moddiy-texnika bazasini vujudga keltirmay turib kommunizm qurish mumkin bo'lmaganidek, kishilarning madaniyati, bilimi, ijtimoiy ongini yuksak darajaga ko'tarmay turib, ularni ma'naviy kamolga yetkazmay turib kommunizm qurish ham mumkin emas[2;112]". Brejnev o'zini xalqparvar ko'rsatgan ushbu balandparvoz gaplarda xalqlarning ma'naviy kamoloti deganda ateistik mafkura bilan sug'orilgan komunizmni nazarda turgan. Rivojlangan sotsialistik jamiyatga o'tish davri ya'ni, 1959-1965 yillarda erishilgan madaniy yuksalishlar va uning ayrim kishilar ahloqi va turmushida uchraydigan diniy sarqitlarga qarshi kurashdagi roli ekanligini ta'kidlagan sovet hokimiyati tomonidan dinimiz, tariximiz, urf-odatlarimiz, moddiy-madaniy merosimizga dahl qilindi.

KPSS Markaziy Komitetining 1983-yil iyun Plenumi va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumidan keyin Qashqadaryo viloyatida yangi insonni tarbiyalash, inson omilini aktivlashtirish sohasida mafkura ishini sovetlashtirilgan ko'rinishini tashkil etishda qator ishlar amalga oshirildi. Ideologiya, g'oyaviy-siyosiy ishlarni yaxshilashda burjuaziya axloqi va ideologiyasiga, kishilar ongidagi reaksiya qoldiqlarga, qoloq an'ana va urf-odatlarga qarshi kurash muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlandi. Partiya komitetlari "Bilim" jamiyat oblasti va rayon tashkilotlari, respublika ilmiy-ateizm uyi filiali xodimlari bilan hamkorlikda dinga qarshi propaganda masalalari bo'yicha qator seminar-kengashlar, ilmiy-amaliy konferentsiyalarni o'tkazdilar. Ateistlar xaftaligi, og'zaki jurnallar "Davra stoli" atrofida suhbatlar o'tkazish, rayonlarga agitbrigatlar va lektorlar gruppalarini jo'natish an'ana tusini oldi. 1985-yilning o'zida ateistik mavzularda 2100 tadan ortiq ma'ro'za o'qilib, ta'lim muassasalarida 961 ilmiy-ateizm burchaklari tashkil etildi[3]. Bu davrda maktablarda, hunar-texnika bilim yurtlarida, o'rta mahsus o'quv yurtlarida yoshlarni ateistik ruhda tarbiyalash bo'yicha muayyan ishlar olib borildi. Undan tashqari aholi turar joylarida, barcha mahallalarda dinga qarshi mavzularda suhbatlar o'tkazib borildi, mahalliy aholini urf-odatlarga rioya etish hollari, hatto Komsamollar o'rtasida ZAGS da ro'yhatdan o'tgach nikoh o'qitish hollari qoralandi va ularga qarshi keskin kurash olib borildi. "Ilohiy joylar"ga borish kishilar va ayniqsa

## FALSAFA-SIYOSAT

bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aholiga o'qitildi. Deyarli barcha ziyoratgohlar markazning mahsus buyrug'i asosida qarovsiz holatga keltirildi. Qashi shahrining uzoq yillik ziyoratgohi Abu Ubayda ibn al-Jarroh ziyoratgohi ham sho'ro davrida putazorga aylantirildi. 1954-yilda bu yerga kelgan Tarixiy obidalar va yodgorliklarni muhofaza qilish davlat tashkiloti vakili Frenkel majmua holatini bunday tasvirlaydi: "...Majmua hozirda xarobaga aylangan. Uni o'rab turgan to'siqlar endi yo'q. Atrofi paxtazor. Maqbaradan jamoa xo'jaligi ombor sifatida foydalanilmoqda. Masjid huvillab yotibdi. Hovuz qarovsiz. Hamma joyni qalin butalar qoplagan[4]". Ushbu holatlar barcha ziyoratgohlarda kuzatilgan.

O'zbekiston kompartiyasi XXI syezdida Dehqonobod rayonida ateistik tarbiya ishining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, rayonda diniy aqidalar va rasm rusumlar shu choqqacha barham berilmaganligi masalasini ko'tarib rayondagi Lomonosov nomli maktab o'qituvchi M.Gurkina, tanqid qildi[5].

Xalq deputatlari Sovetlari ijroya komitetlari, prokuratura organlari, ichki ishlar bo'limlari va xalq sudlari dindorlarning jamiyatga qarshi har qanday ishlarini qoralashlari, aholi o'rtasida, ayniqsa, bolalar va yoshlar o'rtasida diniy kitoblarning tarqatishlariga qarshi kurash olib bordilar[6]. Dinni qatag'on qilish jarayoni ancha oldin XX asrning 20-30, 40-50 yillarida boshlangan bo'lsada, 80 – yillarga qadar ham keskinlik bilan kurash olib borildi. Albatta olib borilgan bundan chora tadbirlardan so'ng uyidan diniy kitob chiqqan, bolalarni davolash maqsidida qu'on oyatlarini o'qib qo'ygan, ommaga din to'g'risida biror bir so'z aytgan, ziyoratgoh va diniy qadamjolarga borgan va boshqa shunga o'hshash diniy amallarga aloqador bo'lgan har qanday kishi davlatga qarshi degan ayblov bilan jazoga tortildi.

Diniy ulamolar va ruhoniylar "aksilsho'roviiy faoliyat" olib borganlikda soxta ayblan yo'li bilan qatag'on qilish borgan sari kuychaydi. Tarixchi M.Shkarovskiyning yozishicha, "Agar 1948 yilda davlat xavfsizlik organlari diniy ishlar bo'yicha ayblov bilan 3 ming 296 nafar kishini, shu jumladan, 357 nafar ruhoniyni hibsga olgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar 1949-yilda – 6 ming 456 dindon, 571 ruhoni, 1950-yilda 6 ming 72 ta dindor, 455 ta ruhoni, 1951-yilda 5 ming 477 ta dindor, 273 ta ruhoni, 1952 1953 yillarda 5 ming 187 nafar dindor va 130 nafar ruhoni hibsga olingan[7;238]".

*Madaniyat sohasi.* Xalq ma'naviyati, madaniyatini o'zida aks ettirgan O'zbekistonning qadimdan mavjud bo'lgan milliy teatr san'ati turiga kirgan: qug'irchoq teatr san'ati, dorvozlik san'ati, qiziqchilik san'ati madaniy sohani rivojlantishda o'ziga hos o'rin tutgan. Zero, Mahmudxo'ja Behbudiy aytganlaridek, teatr bu- ibratxona, qutlug' tarbiya va ma'rifat maskanidir. Undan tashqari, o'zbek adabiyotida, tasviriy san'at asarlarida, kino sa'ati ham xalqning milliy madaniyatini aks etganini ko'zlatish mumkin. XX asrning 50-70 yillaridagi madaniy islohotlar ana shu milliy madaniyatimizga dahl etdi. Faqatgina sovet hokimiyatining atteistik g'oyalarini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar soni oshirib borildi, kolxoz va sovxoz klublaridagi ma'ro'zalarning barchasi, kino va teatr san'atida va hatto tasviriy san'at asarlariyu, adabiyot sohasini ham ateistik g'oya targ'ibotiga qaratildi. Paxtakorlarga og'ir kundan so'ng dala shiyponlarida qo'yib beriladigan film va o'tiladigan lektor darslari faqat sovet hokimiyati g'oyalarini targ'ib etdi.

*Kadrlar boshqaruvi.* Mustabid tuzum Markazdan ittifoqning boshqa mamlakatlari kabi O'zbekiston SSR da ham mahalliy kadrlar faoliyatini doimiy nazoratda ushlab turish uchun o'zining ishonchli vakillarini davlat tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlab turdi. Shuning uchun ham asosan barcha mas'ul lavozimlarni rus millatiga mansub kadrlar egalladi, ularning atrofidagi mahalliy kadrlar ham sotsialistik ruhda tarbiyalangan bo'lib, markazdan berilgan barcha topshiriqlarni itoatgo'ylik bilan bajarishardi.

Bu davrda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va unda ishlab chiqariladigan mahsulotlarini boshqarishni tashkil yetish lenincha tamoyillarga asoslandi. Bu quyidagilardan iborat:

- siyosiy va ho'jalik ishlarni birdek olib boradigan rahbarlar bilan ta'minlash;
- Markazlashgan demokratiyaga rioya qilish;

- Mehnat va ishlab chiqarish tashkilotlarida yagona rahbar boshqaruvini ta'minlash;
- Kadrlarni tanlashda ularni siyosiy va ishbilarmonlik fazilatlarini inobatga olgan holda vazifalarini belgilash;
- Rahbariyatni aniq va rejali, nazorat va shaxsiy javobgarligini oshirish[8;11]; Ushbu printsiplar asosida kolxoz va sovxozlarda rahbar kadrlar tanlab olindi va qishloq xo'jaligini, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy rejimda ish olib borildi. Siyosiy rejim tizimini yagona rahbar qo'lida bo'lib, ushbu rejimga qarshi chiqqan deb hisoblanganlar shavqatsiz jazolandilar.

*Ilm-fan.* Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida aks etgan Sovet Ittifoqining lenincha printsiplarga asoslangan siyosati ilm-fan tarmoqlarida ham yaqqol namoyon bo'ldi.

O'zbekiston SSR da 1965-1980 yillarda ilmiy darajasi bor professor-o'qituvchilarning soni 3 martaga oshdi. O'zbekistonda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishi – paxta muammolarini rivojlantirishga, eng avvalo – yangi, erta pishar, kasalliklarga chidamli, mahsuldorligi yuqori bo'lgan paxta navlari ustida ish olib borishga qaratildi[9;17]. Ya'ni paxta siyosati ilmiy tadqiqot sohalarining biologiya, qishloq ho'jaligi, geologiya-mineralogiya, iqtisod, texnika fanlari tarmoqlariga ham o'z ta'sirini sezilarli o'tkazib keldi.

Jadvalda 1960-1980 yillardagi O'zbekiston SSR da olib borilgan ilmiy-tadqiqot sohaları va ulardagi ko'rsatgich aks etgan[10;16].

Таблица 2			Таблица 3		
Науки	Численность докторов наук, в том числе (в скобках) женщин	Средний возраст заступающих докторскую диссертацию	Науки	1960 – 1970 гг.	1970 – 1980 гг.
Физико-математические	54(2)	42	Технические	47	41
Химические	59(5)	44	Физико-математические	46	41
Биологические	84(15)	47	Химия	46	42
Геолого-минералогические	54(5)	46	География	48	42
Технические	68(3)	47	Медицина	45	45
Сельскохозяйственные	48(1)	51	Биология	43	45
Исторические	71(8)	48	Геолого-минералогические	48	46
Экономические	63(2)	49	Сельскохозяйственные	55	49
Философские	42(4)	44	Философия	42	45
Филологические	94(5)	48	История	48	48
Географические	12(3)	47	Экономика	50	48
Юридические	24(2)	49	Филология	47	48
Медицинские	2·8(4·1)	44	Юридические	50	53
Ветеринария	10(-)	44	Ветеринария	42	44
Искусствоведение	8(2)	51	Искусствоведение	58	46
Психология	2(-)	48	Педагогика	60	55
Фармацевтика	4(1)	46	Психология	40	49
Педагогика	5(-)	55	Фармацевтика	40	53
Всего	972	46		48	47

XX asrning 40-50 yillariga kelganda sovet davlati qatag'onlarning yana bir pallasi ikkinchi jahon urushi yillarida mashaqqatli mehnat qilib, vatan uchun front ortida bo'lsada mehnat qilib ishlaganlarga ham endilikda "yor unsurlar" sifatida qarala boshladi. "Mafkura maydoni" da hujumni keng avj oldirib, ijodida sovet mafkurasiga to'g'ri kelmaydigan qarashlar bor bo'lgan adib, yozuvchi, shoirlar qatag'on girdobiga tortildi. "Yozuvchilar va shoirlardan kimda-kim o'z ijodida o'z xalqining tarixi sahifalariga murojat qilgan bo'lsa bormi, uni darhol feodal o'tmishni "ideallashtirish" da ayblashar, unga "millatchi" yorlig'i yopishtirilar va undan kelib chiqadigan barcha oqibatlarga duchor qilinardi. Natijada milliy badiiy ziyolilarni badnom qilish harakatlari ayniqsa 1949-yil 25-iyun O'zKP(b) MQning byurosida O'zbekiston yozuvchilari ishi muhokama qilingandan so'ng kuchayib ketdi. MQ byurosi muhokama etilgan masala yuzasidan qabul qilingan qarorda o'zbek yozuvchilaridan ayrimlarining ijodida "millatchilik va milliy mahdudlik, feodal o'tmishni keng suratda ideallashtirish va eski feodal madaniyati oldida qullarcha sajda qilish elementlari mavjuddir" deb ta'kidlandi. Qarorda Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Oybek, Mirtemir, Tuyg'un, M.Boboyev, O'.Rashidov, Hamid G'ulom, A.Qayumov, M.Shayxzoda kabilar qattiq tanqid ostiga olingan edi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

1947-yilga kelib O'zbekiston SSRda qamoqqa olishlar shu darajada ko'payb ketdiki, mavjud qamoqxonalar mahbuslarni o'z bag'riga sig'dira olmay qoldi. Shu boisdan SSSR Ministrlar

## FALSAFA-SIYOSAT

Sovetning 1947-yil 1-martdagi maxsus qarori bilan aprel oyigacha 3 ming mahbusga mo'ljallangan 3 ta lagerni zudlik bilan tayyorlash O'zbekiston hukumatiga topshirildi[11;511].

Sovet davlatining qatag'on apparatini ishga solish bilan mustaqil fikrlovchi kishilarni doimo ta'qib ostida ushlab kelishga o'rganganligi sababli bu harakatlarda ham faqat qoralashlar bilan cheklanmasdan bir qanchalari qatag'on qilindi[12;].

Bu yillarda respublikaning bir qator ko'zga ko'ringan adiblari emas, balki madaniyat xodimlari, fan nomoyondalari ham qatag'on qurbonlari qatoriga qo'shilib bordilar.

Sovet hokimiyatining qatag'onlik siyosati "Sotsialistik jamiyatning g'alabasi to'liq ta'minlandi" deb e'lon qilingan vaqtdan keyin ham davom ettirildi.

I.V.Stalin vafotidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan N.S.Xrushchev sovet hokimiyatining Stalin rahbarlik qilgan yillaridagi qatag'onlik siyosatini xalqqa oshkor qilish borasidagi ishlarni kun tartibiga qo'ydi.

KPSS ning 1956-yil fevralda bo'lib o'tgan XX s'ezdida N.S.Xrushchevning "Shaxsga sig'inish va uning zararli oqibatlari to'g'risida" gi ma'ruzasini tinglab qaror qabul qildi. Qarorda Stalin rahbarlik davrini har tomonlama o'rganib chiqib, shaxsga sig'inishning zararli oqibatlarini bartaraf qilishning chora-tadbirlari belgilandi[13;90]. Ushbu qaror juda qisqa bo'lib, unda N.S.Xrushchev ma'ro'zasida ma'lum qilingan mulohazalar ma'qullandi.

KPSS MQ XX syezdning ushbu qaroriga muvofiq shaxsga sig'inish masalasini har tomonlama o'rganib chiqib, 1956-yilning 30-iyulida KPSS MQ ning "Shaxsga sig'inish va uning zararli oqibatlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi[14;111-129].

**XULOSA.**

Umuman olganda urushdan keyingi yillarda O'zbekiston SSR ning barcha viloyatlari kabi Qashqadaryo viloyatida ham mustabid tuzum tomonidan zug'um viloyat ziyolilarigagina emas, balki xalq xo'jaligining barcha sohalarida mehnat qilgan kishilarga nisbatan qo'llanildi. Millat ma'naviyati, dini va qadriyatlarini oyoq osti bo'ldi. Ming shukrlar bo'lsinki, o'tgan qora kunlarni bugun biz tarix sifatida kelajak avlodga ibrat bo'lishi uchun o'rganmoqdamiz. Zero, xalqning ma'naviy ongini, ma'naviy tavakkurini shakllantirish, tariximizni bilish, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganish, an'ana, urf-odat va qadriyatlarimizni saqlanish va hurmat qilish, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji mamlakat kelajagini kafolatlaydi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Т.Рахимбабаева, Л.О.Абасова формах культурного сотрудничества народов СССР на современном этапе. Общественные науки в Узбекистане. «Фан»УзССР, Ташкент- 1981/7, С.3//Брежнев Л.И. Отчетный доклад Центрального комитета КПСС XXVI съезду Коммунистической партии Советского Союза и очередные задачи партии в области внутренней и внешней политики. М., 1981, С.77. (Rakhimbabaeva T., Abasova L. On the forms of cultural cooperation between the peoples of the USSR at the present stage. Social Sciences in Uzbekistan. "Fan" of the Uzbek SSR, Tashkent - 1981/7, p.3)
2. Брежнев Л.И. КПСС Марказий Комитетининг Совет Иттифоқи Коммунистик партияси XXIV съездига хисобот доклади, Тошкент -1971 йил, 112-бет.
3. Қашқадарё ҳақиқати, № 33 (10974), 1986 йил 15 февраль. (Brezhnev L.I. Report document of the Central Committee of the CPSU to the XXIV Congress of the Communist Party of the Soviet Union, Tashkent - 1971, page 112.)
4. Qashqadaryo viloyati madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish inspeksiyasi joriy arxivi. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatidagi Madaniy meros ob'ektlarining muhofaza qilishi va ularni ta'mirlash borasidagi faoliyati to'g'risida Ma'lumotnoma papkasi. (Current archive of the inspection of cultural heritage objects of Kashkadarya region).
5. Qashqadaryo haqiqati, № 33 (10974), 1986 yil 15 fevral (The truth of Kashkadarya, No. 33 (10974), February 15, 1986)
6. Qashqadaryo haqiqati, № 33 (10974), 1986 yil 15 fevral. (The truth of Kashkadarya, No. 33 (10974), February 15, 1986.)
7. Mirzayev G'ulom."Ey, Darvesh (Zulmni yengan mazlumlar qissasi)", "Mashrab", Toshkent-2022. 238-b. (Mirzaev Ghulam. "Hey Darvesh (The story of the oppressed who overcame oppression)", "Mashrab", Tashkent-2022. p. 238)
8. Эргашева С.Р. Совершенствование управления сельскохозяйственным производством в системе народнохозяйственного хлопкового комплекса УзССР. Общественные науки в Узбекистане. 1981/11, "Фан"-Ташкент, С.11 (Ergasheva S.R. Improving the management of agricultural production in the system of the national economic cotton complex of the Uzbek SSR. Social Sciences in Uzbekistan. 1981/11, "Fan"-Tashkent, p.11)



9. Муталов Н. Научная интеллигенция Узбекистана в условиях развитого социализма. Общественные науки в Узбекистане. «Фан»УзССР, Ташкент- 1983/2, С.17 (Mutalov N. Scientific intelligentsia of Uzbekistan in the conditions of developed socialism. Social Sciences in Uzbekistan. "Fan" of the Uzbek SSR, Tashkent - 1983/2, p.17)
10. Муталов Н. Научная интеллигенция Узбекистана в условиях развитого социализма. Общественные науки в Узбекистане. «Фан»УзССР, Ташкент- 1983/2, С.16 (Mutalov N. Scientific intelligentsia of Uzbekistan in the conditions of developed socialism. Social Sciences in Uzbekistan. "Fan" of the Uzbek SSR, Tashkent - 1983/2, p.16)
11. КПСС в резолюциях. т-9. М.: Полиздат. 1985. – С. 90. (CPSU in resolutions. t-9. М.: Polizdat. 1985. - S. 90.)
12. КПСС в резолюциях. т-9. М.: Полиздат. 1985. – С. 111-129. (CPSU in resolutions. t-9. М.: Polizdat. 1985. - S. 111-129).